

# GOSPITAL TA'LIMDA MAKTABGACHA YOSH GURUHLARINING TURLARI VA UZOQ MUDDATLI DAVOLANAYOTGAN BOLALARGA TA'LIM- TARBIYA BERISH USULLARI

*“Mehrli maktab” Qoraqalpoq filiali tarbiyachisi*  
**Baxieva Manzura**

**Kalit so'zlar:** *Gospital ta'lism, o'yin guruhlar, maktabgacha ta'lism guruhlar, pantomimka, rangli o'yinchoqlar.*

Ta'limda katta burilish yasab, yangi yo'naliш bo'lib kirib kelgan gospital ta'lism haqida anchagina ma'lumotga egamiz. Gospital ta'limdagi maktabgacha ta'lism guruhlarining oddiy maktabgacha ta'lism guruhlaridan farqli jihat shundaki, odatiy maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalar 3-7 yosh oralig'ida qamrab olinadigan bo'lsa, gospital ta'limda 1,5-7 yosh oralig'idagi bolalar ta'lism bilan qamrab olinadi. Bunda:

1,5-3 yosh oralig'i (o'yin guruhlari)

3-7 yosh oralig'i (maktabgacha ta'lism guruhlari)

Bu yerda 1,5-3 yosh oralig'idagi bolalarga qanday ta'lism beramiz-u, 3-7 yosh oralig'idagi bolalarga qaysi ta'lism turlarini qo'llasak bo'ladi? Keling, shularni birlgilikda ko'rib chiqamiz.

Barchamiz bilamiz, maktabgacha ta'lism tashkilotlarida bolalarga ta'lism va tarbiya berish maqsadida "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi qabul qilingan. Bu dasturdan gospital ta'limda maktabgacha ta'lism guruhlarida bolalarga ta'lism-tarbiya berishda keng foydalaniladi. Shu bilan bir qatorda erta va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari, gospital sharoitda ta'lism-tarbiya ishlarini tashkillashtirish to'g'risidagi qarorlar bu yerda davolanayotgan bolalar bilan ta'lism-tarbiya ishlarini olib borishda asosiy manba hisoblanadi.

Bizning birinchi maqsadimiz-bolalarning salomatligini asrab avaylash. Sog'lig'iga ziyon etkazmagan holda har tamonlama rivojlanishiga yordam bera oladigan faoliyat va mashg'ulot turlarini to'g'ri tanlash maqsadga muvofiq bo'ladi.

1,5-3 yosh oralig'idagi bolalarning o'qish, yozish, o'ylash, tasavvur qilish malakalari hali rivojlanmagan bo'ladi, bu yoshda ayniqa ko'z va qo'l koordinatalari yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bola ranglarni aynan shu yoshlarida farqlashni boshlaydi va qo'l bilan ushlab ko'rish orqali kichik qo'l motorikasi rivojlanadi. Bu yosh davridagi bolajonlarimiz uchun o'yinli mashg'ulotlarni tanlaymiz va quyida ulardan ba'zilari bilan tanishib chiqamiz:

Rangli plastmassa o'yinchoqlar (bularga hayvonlar, mevalar, poliz ekinlari, qo'g'irchoqlar, rangli to'pchalar, mashinalar v.h). Bu o'yinchoqlar bilan har xil mazmundagi o'yinlarni tashkillashtirish mumkin. Asosiysi, ular nomlarini bilib olish va eslab qolishga, ranglarni, turlarini ajratishga, sanashga, katta-kichikligini taqqoslashga o'rgatib, bolada umumiy bilish protsesining rivojlanishiga yordam beradi.

Pantomimika bilan ertak aytish.

Bunda tarbiyachi bolalarga ertakni qo'yib eshittiradi, undagi qahramonlarning harakatlarini, emotsiunal holatini pantomimika qilib ko'rsatib beradi. Bolalar izidan

takrorlaydi. Bola o'ziga rol olishi orqali shaxsiy kompetentsiyalari rivojlanadi, o'ziga ishonchi ortadi, nutqi va so'z boyligi oshadi.

Gospital ta'linda maktabgacha ta'lim guruhlarida mashg'ulotlarga bolalar ota-onalari bilan birga tashrif buyurishini inobatga olsak, bu kabi o'yinlarni o'ynatish bizga qiyinchilik tug'dirmaydi.

3-7 yoshli (maktabgacha ta'lim guruhlari) bolalar uchun faoliyat va mashg'ulotlarni ularning qiziqishiga, hoqishiga qarab tanlaganimiz maql. Chunki bolaning salomatligidan kelib chiqadigan bo'lsak, uzoq va bolalar uchun og'riqli bo'lgan davolanishdan keyin, bolada charchoq, ruhiy zo'riqish, salbiy emotsiyal holat kuchayishi mumkin. Bola o'zi yoqtirgan biror mashg'ulot bilan shug'ullansa, yuqoridagi kabi salbiy holatlardan chiqib ketishi osonroq bo'ladi. Bu yerda har bir bolaga individual yondashiladi. Bu esa bizga kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.

Markazlar faoliyatini har bir bola uchun alohida tashkillashtirish maqsadga muvofiq. Mashg'ulot paytida bolajonlar bajaradigan vazifalarni tanlashda ularning yoshi va sog'lig'iga alohida e'tibor qaratishimiz kerak. Bizning yutuqli tamonimiz, barcha mashg'ulotlar davomida ota-onalar farzandlarining qiziqishlarini, qobiliyatlarini va ularning ijod mahsulini ko'rishga muvoffaq bo'ladilar, qo'shimcha tavsiyalar olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

O'yin orqali bolalarga mavzuni qiziqarli va oson, qulay tushintirish texnikasiga ega bo'lamiz. Demak, ulardan ba'zilarini sizlar bilan bo'lishaman:

**Harakatli o'yin:** “Tovuq sayrga chiqdi” (Tarbiyachi amalga oshiradi, bolalarga yon-atroftan mo'ljal olishga o'rgatadi)

**Stol atrofida o'tirish qoidalari** (To'g'ri o'tirish, qoshiqni o'ng qo'l bilan ushslash, minnatdorchilik bildirish)

**Didaktik o'yin:** “Geometrik kub” (Insert qismlarni shakliga qarab joylashtirishni o'rghanadi)

**Suyjetli-rolli o'yin:** “Mehmonga borish” (O'yindan maqsad aniqlanadi, hamjihatlikni o'rghanadi, diqqatni jamlashni mashq qiladi)

Gospital ta'linda maktabgacha ta'lim guruhlarida bolaning yoshidan qat'iy nazar, har bir bola uchun individual yondashuv(podxod) muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun bolani alohida o'rganish, yoshiga mos faoliyat turlarini to'g'ri yo'naltirish, ota-onalar bilan doimiy birga ishlashni yo'lga qo'yish, va bolalar uchun muvaffaqiyatli ta'lim muhitini yaratish bu yerdagи pedagoglardan katta mahoratni talab qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Alimova Nigora Israilovna, Tursunova Dildora Ziyadullayevna, Turakulova Nafisa Buranovna. (2023). GOSPITAL TA'LIMDA DARS TASHKIL QILISH: Pedagogical Science. *IQRO*, 5(1), 34–38. Retrieved from <https://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/1889>

2. <https://bolakadem.uz>
3. <https://www.maam.ru>